

**SECTION I****INNOVATIVE APPROACHES AND METHODS OF ACQUIRING KNOWLEDGE IN LANGUAGE LEARNING****TIL O'RGANISHGA INNOVATSION YONDASHUV JARAYONIDA FALSAFIY TAFAKKURNING O'RNI**

*O. G'aybullayev<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:**

Maqolada XXI asrda globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va madaniy aloqalarning kuchayishi til o'rganishga bo'lgan talabni oshirayotgani haqida fikr yuritiladi. Muallif til o'rganish jarayonida falsafiy tafakkurning o'rmini ochib beradi hamda innovatsion yondashuvlar orqali yoshlarning til ko'nikmalarini oshirish, interfaol usullarni ta'limga tatbiq etish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, maqolada milliy tillarni saqlab qolish, ularning global raqobatga bardoshli bo'lishi uchun davlat siyosatida amalga oshirilayotgan islohotlar, turkiy xalqlar o'rtasida umumiy til yaratish g'oyalari, tilning madaniy va muloqtdagi funksional o'rni yoritiladi. Muallif til o'rganishni nafaqat texnik jarayon, balki chuqur falsafiy mushohada negizidagi ijtimoiy hodisa sifatida ko'rib chiqadi.

**Kalit so'zlar:** til o'rganish, innovatsion yondashuv, falsafiy tafakkur, globallashuv, interfaol ta'lim texnologiyalari, milliy til, til siyosati, axborot texnologiyalari, lingvistik kompetensiya, zamonaviy lug'atlar, til islohotlari, ko'p tillilik, madaniy muloqot, o'zbek tili, turkiy tillar birligi.

XXI asrga kelib insonlarning bir-birlari bilan o'zaro aloqalari jahon tillarining keng masshtabi bo'lishini paydo qildi. Natijada axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan insonlar turli millat va elatlarning madaniyati, san'ati, adabiyoti hamda e'tiqodlarini chuqur o'rganish uchun imkoniyatlar yaratdi. Hayot sur'atlarining yangi bosqichga ko'tarilishi jamiyatda tilga bo'lgan ehtiyojni global tarzda rivojlantirib, milliy tillarning o'rganilishida innovatsiyalar o'zining alohida universal jihatlarini namoyon eta boshladi. Har bir xalqning asrlar davomida erishgan yutuqlari bevosita til orqali aks etishini hisobga oladigan bo'lsak, milliy tillarning ham o'ziga xos o'rganilishidagi oson va qiyin tomonlari borligini inobatga olish zarur. Shundan kelib chiqqan holda bugungi globallashuv texnika va texnologiyaning imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun jamiyatda qator innovatsiyalarni hayotga tadbiq eta boshladi. Bunday zamonaviy qulayliklarni o'sib kelayotgan yosh avlodning o'rganishi, o'zlarining bilim darajalarini boyitib borishlari barcha halqlar uchun til o'rganishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. "Globallashuv jarayonlarining ta'sirida milliy tillar boyiydi, zamonaviy terminlar ishlab chiqarishning milliy usullari aniqlana boshlaydi. Bu narsa, ayniqsa, keng yoyilgan voqeja: minglab ingliz, rus, o'zbek tili o'qituvchilari o'nlab, hatto yuzlab inglizcha-ruscha-o'zbekcha zamonaviy lug'atlarni ish jarayonida yaratadilar". Keyingi yillarda dunyoning ko'plab tillarini o'rganish uchun chop etilayotgan lug'atlarning negizida xalqimizning milliy tilini dunyoga tanitish, dunyo tillarini biladigan o'zbek yoshlarning sonini kundan-kunga oshirish masalasi jamiyatdagi til islohotlarining asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Yoshlarning turli xorijiy tillarni o'zlashtirishga qiziqishlari negizida chop etilayotgan zamonaviy lug'atlar til ko'nikmalarini shalklantirishga, aholisining bir necha tillarda so'zlashishga imkoniyat yaratadi.

Jamiyatda tilni o'rganish va uning ta'lim tizimidagi rolini kuchaytirish uchun hukumatning qabul qilayotgan til to'g'risidagi qaror va farmonlarining barchasi farovon hayotni barpo etishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarni dunyo tillari bilan bog'lash, xalqning so'zlashishidagi imkoniyatlarni oshirish uchun tilga innovatsion yondashuv muhim falsafiy jarayonga aylandi. Zamonaviy ilm-fan va texnikaning taraqqiy etishi til sohasidagi bilimlarni ham o'ziga xos muomala madaniyatiga ega bo'lgan holda talab eta boshladi. Yoshlarning axborot texnologiyalarini yaxshi egallashlari evaziga bugungi kunda tilni o'rganishga qaratilgan an'anaviy usullardan innovatsion yondashuvga o'tish shakllandi. Har bir xalqning milliy mentalitetiga xos til o'rganish uslublari shakllanishi natijasida jahonda o'zbek tilining o'rganuvchilari auditoriyasi ham kengaya boshladi. Shuningdek, o'zbek yoshlarning dunyo tillarini o'rganishga qiziqishlarining ortishi, avvalo, ingliz tilining jahondagi asosiy ko'pchilik so'zlashadiganligiga e'tibor qaratish ham joiz bo'ldi. Har bir hududda makatabgacha ta'lim tizimidan tortib, maktab va oliy ta'lim tizimida ham bu tilning rolini oshirish va o'rganishda qiziqishlar oshib bormoqda. "Interfaol ta'lim texnologiyalarining ajralib turadigan jihat shundaki, deyarli barcha

<sup>1</sup> G'aybullayev Otobek Muxammadiyevich, falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti, Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

talabalar mashg'ulot jarayonida ishtirok etadi. Shunisi ahamiyatliki, dars jarayonida talabalar o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishadi. Bundan tashqari, muloqot yaxshi amalga oshirilishi bilan birgalikda o'zaro sheriklar birlariga yordam berish muhitini yaratadi va bu nafaqat yangi bilimlarni olish, balki kognitiv faoliytkni rivojlantirish, uni hamkorlik va hamkorlikning yuqori shakliga olib borish imkonini yaratadi". Bundan ko'rindiki, dars jarayonlarida innovatsiyalarning qo'llanilishi ta'lif oluvchilar uchun keng imkoniyatlarni yaratibgina qolmasdan, yoshlarning turli kompetensiyalarni egallashlari uchun zamonaviy bilimlarni beradi. Ta'lif jarayonlarining yangicha usulda tashkil etilishi, noan'anaviy tarzda tillarni o'rganish yoshlarda til ko'nikmalarini shakllantrishga xizmat qiladi. Yoshlarda til ko'nikmalarini oshirishda har bir fanning uslubiyatini yaxshi bilish, aholining tilga bo'lgan talab va ehtiyojlarini yaxshi o'rganish zarur. Bu esa, til o'rganishda innovatsiyalarning inson manfaatiga qaratilishini, milliy tillarni ob'ektiv voqelikni o'z qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qilishini ta'minlashga olib keladi.

Globallashuvning kuchayib borishi jahonda tillar o'rtasidagi raqobat muhitini vujudga keltirib, muloqot vositasi sifatida turli tillarning kurashini namoyon etadi. Bunda ayrim tillar o'zining jamiyatdagi o'rnini dunyoda rivojlangan tillarga bushatib berishi evaziga o'zining hayotiyagini yo'qtodi va o'lik tilga aylanib boradi. Shuning uchun bugun jahon tillariga kirgan ingliz, fransuz, nemis, xitoy, rus tillarining mavqeい o'zining umrboqiyligi bilan muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilining ham bugungi kunda dunyoda qirqinchi o'rinda turishini yaxshi anglagan holda, uning bardavom va umrboqiy bo'lishiga barcha fuqarolar mas'uldirlar.

Tillarni o'rganishga falsafiy yondashuv uning sermazmun va so'z boyligi bilan boyib borishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Xalqimizning o'zbek tilini dunyodagi rolini oshirishga qaratilgan islohotlar davlatimiz siyosatida o'z aksini topgan. Bunday falsafiy qarash bugun barcha tillarda so'zlashadigan insonlar uchun ham muhiligi anglash kerak. Chunki tilni bilish bilan bir qatorda uning ichki va tashqi muhitdagi rivojlanish traektoriyalarini falsafiy mushohada negizida anglash, voqelikdagi ahamiyatini uzlusiz bilib borish darkor.

Insoniyatning taraqqiyot darajasi yangi pag'onalarga ko'tarilib borishi natijasida turli tillarda so'zlashadigan mutaxassislarning ko'payishiga olib kela boshladi. Ayniqsa, til orqali milliy o'zlikni anglashga e'tibor qaratish, milliy tillarni muayyan maxrajga keltirish negizida rivojlanish muhim masalaga aylandi. Bu borada turkiy xalqlarning jahonda o'zları uchun o'rta turk tilini yaratishga intilishlari ham namoyon bo'limoqda. Bu esa, turkiy davlatlar o'rtasidagi hamjihatlik, birodarlik, yaqin qo'ni-qo'shnichilik, ahillik singari insoniy fazilatlarni kuchaytiradi. Jamiyatda til imkoniyatlarini kengatirish nafaqat millat uchun, balki muayyan hududiy birlikka ega bo'lgan insonlarning til ko'nikmalarini birlashtirishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, til o'rganishda innovations yondashuv masalasi har bir ertangi farovon hayotni ko'zlagan davlatning yo'lidir. Bu jarayon xalqaro tillarni mukammal biladigan fuqarolarni ko'paytirishga, millatlarning urf-odat va an'analarini boshqa xalqlarga yetkazishiga keng ko'lamda xizmat qiladi. Bu bugungi kunda tilga innovations yondashuv kelajakka qaratilgan islohotlar samarasi sifatida ijtimoiy makonda millatlarning taqdirini belgilab beradi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

- [1]. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
- [2]. Vinokur G.O. *Jazyk i kultura*. Moskva: Nauka, 1995.
- [3]. Rosenthal D.E. *Prakticheskaya stilistika russkogo yazyka*. Moskva: Drofa, 2005.
- [4]. Al-Farabi. *Fozil odamlar shahri*. Toshkent: Fan, 1993.
- [5]. Hasanov M. *Zamonaviy tillarni o'rganishda innovations yondashuvlar*. // Filologiya masalalari. – 2022. – №1(87). – B. 54–60.